



## YASSAVIY VA XUDOYDOD HIKMATLARINING MAVZU VA OBRAZ XUSUSIYATLARI

**Musayeva Moxiraxon Shahobiddin qizi**

Farg'ona tumani 6-umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili va adabiyoti fani  
o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13879800>

### **Annotasiya**

Maqolada Ahmad Yassaviy va Xudoydod hikmatlarining mavzu va obraz xususiyatlari tahlil qilingan.

### **Аннотация**

В статье анализируются тематические и образные особенности мудростей Ахмад Яссави и Худойдод.

### **Annotation**

The article analyzes the thematic and image features of Ahmad Yassavi and Khudoydod's wisdoms.

**Tayanch so'z va iboralar:** ishq, oshiq, yor, payg'ambar, visol.

**Опорные слова и выражения:** любовь к Всевышнему, влюблен в Созидателя, госпожа, пророк, встреча.

**Key words and expressions:** romance, lover, fiance, prophet, vizol.

Ma'lumki, tasavvufda Haqqa oshiqlik, Haqni yor bilib, uning visoliga intilish soliklar uchun asosiy maqsad bo'lgan. Ana shunday eytuk shaxslardan biri shayx Xudoydod bo'lgan. Botirxon Valixo'jayevning yozishicha: "Shayx Xudoydod Valining g'azallari ishq mavzusiga bag'ishlangan. Muallif talqinida ishq – tariqat ahli va peshvosi tushunchasida bo'lib, uning asosini Alloh taolaga nisbatan bo'lgan ishq-muhabbat tashkil etadi. Shuning uchun g'azallardagi "Sen, yor" kabi iboralar zamirida Tangri, Xudo anglashiladi, "Men" esa, unga intiluvchi banda – oshiqni ifoda etadi.[1] Shunday ekan u kishining she'rlari mavzuni Yaratgangan bo'lgan ishq mavzusi tashkil etgan.

Aslida, "Mavzu - badiiy mazmun komponenti, asarda qo'yilgan ijtimoiy, falsafiy, ma'naviy-axloqiy va boshqa muammolarni badiiy idrok etish uchun tanlab olingan va tasvirlangan hayot materialidir." [2,1]

Tariqat yo'lga kirganlarning yagona umidi Alloh taoloning rizoligiga erishish va uning diydoriga muyassar bo'lishdir. Bu yo'lda solik har qanday mashaqqatlarga mamnuniyat bilan peshvoz chiqadi. Shuning uchun Ahmad Yassaviyda quyidagilarni yozgan:

Kecha-kunduz orzu qilsang oning diydorini,  
Sof qilg'il bu ko'ngulni, bir kuni darbor etar.





ITALY

## SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

Ey qul Ahmad, sen yurub g'amgin ko'ngulni ovlagil,

Ahli dil bo'lg'an kishi g'amgin ko'ngilni shod etar.[3]

Bilamizki, insonning ko'ngli Allohning nazargohidir. Ko'ngilda nimalar kechayotganini Haq taolo hamisha ko'rib turadi. Faqat sof ko'ngilli kishilargina kun kelib kecha-kunduz orzu qilgani – Allohning diydoriga yetishadi. Chunki solik uchun eng buyuk orzu Haq visoliga yetishish va Unga vahdat-ul vujud bo'lish hisoblangan. Lekin ungacha dil ahli qatori Haqning yodi bian yashash, har lahzada uni zikr qilish, eslash bilan band kishilar holidan xabar ol, deya ta'kidlangan. Alisher Navoiy hazratlari ham kimki bir ko'ngli buzug'ning ko'ngilini shod aylasa, vayron bo'lgan Ka'bani obod etganday bo'ishini aytganlar. Xoja Ahmad Yassaviy ham g'amgin ko'ngillarni shod etishga chaqiradi. Chunki, ko'ngli pok, qalb amri bilan ish tutadigan kishilar hamisha shunday qiladilar. Hazrati Azizonda ham shunga yaqin bayt uchraydi:

Yo'q edim bor aylading, yuz ming inoyat aylabon,

Ham taqi ko'rguz O'zungni, dilraboyim, qaydasen?!

Ey Xudoydod, istagil har lahza oning dardini,

Ohu vovaylo bilan deykim: Xayolim qaydasen ?![4]

Alloh taolo insonni jamiki mahluqotlarning sarvari etib yaratdi va qolgan barcha yaratqilarni unga bo'ysundirdi. Shu bilan birga birga unga zabon berdi, ne'matlarning haddi a'losi – iymonni berdi. Inson mana shu komil iymoni bilan Yaratganning rahmatiga sazovor bo'lishi mumkin. Shayx Xudoydodda ham Ahmad Yassaviyda ko'rganimizdek Allohning diydorini ko'rish istagi yuqori. Buning uchun Uning dardini istab, o'sha dard bilan yonib, bu dunyoning o'tkinchi ne'matlarini unutmok kerak. Ohu vovaylo bilan O'ziga nola qilmoq kerak.

Ahmad Yassaviyda:

Yodi birlan bo'lsalar, diydor orzu qilsalar,

Harchand xorliq ko'rsalar ko'ngli o'zga bo'lmasun.

Oshiq'larga dunyoda xorliq-zorliq, malomat,

Malomatsiz, mehnatsiz oshiqmen deb aytmasun.

Yaratganni yod etib, diydorini orzu qilganlar har qancha xorlik ko'rsa ham ko'ngilini o'zidan o'zgaga bog'lamasligi lozim. Bu dunyo hamisha ham Alloh oshiq'larini tushunavermagan. Har bir oshiqning mashaqqat chekishi, tabiiy hol. Bu mashaqqatlarga bardosh bermasa, oshiqman deb aytmasin, deydi Ahmad Yassaviy.

Ko'ngilni yolg'iz Allohga bog'lash, o'zlikdan kechish masalasi Shayx Xudoydodda ham chiroyli yoritilgan. Jumladan:





ITALY

## SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

O'zlugungdin uzmayin, anga bo'la olmas ko'ngil,  
O'zini mutlaq qo'yolmay ham nishon bo'lmas ko'ngil.  
O'zlugumdin uzsam. Ango tamanno qilsa men,  
G'ayrdin to sof etmay, o'zgadin sochmas ko'ngil.

Oshiq o'zligidan kechmas ekan, o'z "men"ini yenga olmas ekan, chin ma'noda Allohga bog'lana olmaydi. O'zini, taqdirini Yaratganga havola qilmas ekan, Yaratganning rahmatiga nishon bo'lolmaydi. Qachonki o'zligidan kechsa, shundagina Haq vaslini orzu qilishga haqli bo'ladi. Bir ko'ngilga ikki narsaning ishqi sig'maydi deganlaridek, Alloh ishqi bor qalbdam ham o'zga bir ishq, havasga o'rin yo'q.

Hikmatlarda Muhammad Mustafo (s.a.v.) obrazi ham alohida o'rin tutadi. Zero, "Badiiy obraz deganda, borliqning san'atko ko'zi bilan ko'rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlangan aksi tushuniladi. Adabiyot va san'atning fikrlash shakli, olam va odamni badiiy idrok etish vositasi, badiiyatning umumiy kategoriyasi" sanaladi.[2,2] Shu ma'noda hikmatlarda ikki olam sarvari (s.a.v.) vasfi ham keltiriladi. Jumladan, Ahmad Yassaviyda quyidagicha:

O'n sekkiz ming olamg'a sarvar bo'lg'on Muhammad,  
O'ttuz uch ming as'hobg'a rahbar bo'lg'on Muhammad.  
Yalang'ochu ochliqqqa qanoatlig' Muhammad,  
Osiy, jofiy ummatg'a shifoatlig' Muhammad.

Allohning rasuli, o'n sakkiz ming olam sarvari, Muhammad (s.a.v.)ning go'zal husni xulqi, yupunlik va ochlikka qanoatli ekanini barcha ummatga namuna qilib ko'rsatmoqda muallif. Aytishlaricha, payg'ambarimiz (s.a.v.) boshqa yemak yo'qligidan kun bo'yi faqat xurmo yeb, suv ichib yurgan ekanlar. Hatto bir-necha kunlab tuz totmagan kunlari bo'lgan ekan. Shunda ham Allohga shukr va tavakkul qilib, o'z yo'lidan qaytmagani ul zotni musulmon deb atalgan ummatga payg'ambar qildi. Bir rivoyatda keltirilishicha, Nabiy alayhissalomning qizlari Fotima roziyallohu anhu xasta ekanini aytib, otalariga odam yuboradilar. Qizining uyiga kelgan marhamatli ota eshikni 3 marta taqillatadi. Ichkaridan biroz kutib turishi iltimos qilinadi. Kutadilar, ammo ichkaridan darak bo'lmaydi. Shunda Rasuli akram (s.a.v.) eshikni ochmayotganlarining sababini so'raydilar. Qizlari esa boshlariga o'rashga hech narsa topolmaganini aytgach: "Men sizning otangizman, eshikni ochavering", - degan javob bilan eshikni ochadilar. Shunda qizlarining sarg'ayib ketgan xastalikdan charchagan yuziga termulib qarab turganlarida Fotima onamiz uylarida yeyishga hech vaqo qolmaganini, bolalari ochlikdan yig'lashgani sabab otalarini chaqirganini aytadilar. Ushbu hikmat bugungi kunimiz uchun ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Boriga shukr, yo'g'iga



ITALY

## SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

sabr qilishda payg‘ambarimiz (s.a.v.) ibrat namunasidirlar. Osiy ummatini o‘ylab, ularni haq yo‘liga chorlashda har qanday tahqirlarga, mashaqqatlarga bardosh bergan Rasulimiz (s.a.v.)ga durudu salomlar bo‘lsin.

Shayx Xudoydod Valida:

Ey xayolat, ham zi avval, ham z-oxir Mustafu,  
Rahnamoi jumla olam shud vahmi Mujtabo.  
Ey xayolat, Mustaforo karda Mahbub az azal,  
Kulli olamro biyomad u rasuli beilal.

(Mazmuni: Ey xayoling, avvalda ham, oxirda ham Mustafu(s.a.v.) bo‘lgach, Ul zot barcha olamning rahnamosi va mujtabosi(saralangan; saylab, tanlab olingan, mumtoz) bo‘ldi. Ey xayoling, azaldan Mustafoni o‘zingga Mahbub – sevikli qilgan, barcha olamlar uchun uni mukammal Rasul – payg‘ambar qilib yuborgan.)

Shayx Xudoydodda ham Allohning bandalari ichida eng oliy maqomga erishgan, Haq taoloning sevikli Rasuli - Muhammad Mustafu (s.a.v.) ulug‘lanadi.

Muhammadni biza qildi payambar,  
Aning shar‘in biza xush qildi oson.  
Aning dinin biza qildi saodat,  
Aning shar‘i biza xush bo‘ldi burhon.

Qur‘oni karimning “(Ey Muhammad,) haqiqatan, Biz Sizni (qiyomat kuni ummatlarga) guvohlik beruvchi, (mo‘minlarga) xushxabar eltuvchi va (kofirlarni) ogohlantiruvchi qilib yuborgandirmiz”(Fath, 8) oyatida Payg‘ambarimizning mo‘minlarga vasldan xushxabar beruvchi, kofirlarni do‘zaxning azobidan ogohlantiruvchi etib yuborilgani aytiladi.

Xullas, hikmatlarda botiniy olam takomili orqali Haq visoliga erishishni maqsad qilgan solik va uning ruhiy holati badiiy ifodasini topgan. Bunda Xudoydod tasavvuf qoidasiga binoan Muhammad (s.a.v.) odoblari va Ahmad yassaviy yo‘lidn borib, o‘tli misralar yozgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Valixo‘jayev B. Hazrati Azizon Shayx Xudoydod Valining adabiy meroslari haqida.//Hazrati Azizon Shayx Xudoydod Vali – yassaviya tariqatining mashhur namoyandasi. Samarqand. 2000. 19-bet.
2. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. T.: Akademnashr. 2010. 44-bet.
3. . Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. T.: Akademnashr. 2010. 157-bet.
4. . Yassaviy A. Devoni hikmat. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Nashriyot-matbaa birlashmasi. 1992. 60-bet.
5. Ulug‘ avliyo Shayx Xudoydod Vali. T.: O‘zbekiston. 2017. 202-bet.

